



O'zbekiston Respublikasi  
 Davlat statistika qo'mitasi  
 Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi

## ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-avgust

Sirdaryo viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,3 %ga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 6,3 %ni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 87,5 %ni tashkil qildi.

*2018 yil yanvar-avgust oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)*



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Guliston shahri (37,7 foiz), Sirdaryo (12,0 foiz), Guliston (8,5 foiz) va Sardoba (8,4 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

### Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, % da



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovarlar aylanmasi aholi jon boshiga 2,6 foizga oshib, 1784,2 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-avgust oylarida 1435,0 ming so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Guliston shahri (6217,4 ming so'm), Yangiyer shahri (2774,5 ming so'm) va Sardoba tumanida (1919,6 ming so'm) kuzatildi.



## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1784,2</b>	<b>102,6</b>
Guliston shahar	6217,4	110,4
Shirin shahar	995,6	90,5
Yangier shahar	2774,5	99,6
Boyovut tumani	612,7	95,9
Guliston tumani	1791,4	100,6
Mirzaobod tumani	1552,0	93,2
Oqoltin tumani	1167,0	92,0
Sardoba tumani	1919,6	101,6
Sayxunobod tumani	776,6	105,5
Sirdaryo tumani	1418,8	103,0
Xovos tumani	558,2	92,0


### KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,3 %ga oshdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidan 93,7 % ini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning umumiy tovar aylanmasi hajmidan 148,0 mlrd. so'mni uyushmagan savdo tashkil qiladi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 10,1% ni tashkil etdi.



## Tuman shaharlar kesimida chakana savdo aylanmasidagi kichik biznes ulushi %da.



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida 36,1%, Sirdaryo tumani 11,0%, Guliston tumanida 9,6%, Sardoba tumanida 9,2 %, va eng past ulush Shirin shahar 1,3%, qayd etildi.


### 2018 yil yanvar-avgust oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar-avgust oylarida ulgurji tovar aylanmasi 774,3 mlrd. so'mni tashkil qildi yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 101,6 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasining o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati ko'payishi kuzatilgan hududlar quyidagilardan iborat: Xovos tumani 192,0 %, Guliston tumani 120,9 %, Shirin shahar 117,3 %, Guliston shahar 111,6 %.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 8,4 %ga oshdi va 433,0 mlrd. so'mni tashkil qildi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 55,9 %ni tashkil qildi.

## Tuman shaharlar kesimida ulgurji savdo aylanmasidagi kichik biznes ulushi %da.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi boshligi:

Nashr uchun mas'ul: S.Saydaliyeva  
(0371) 230-86-16